



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

Nozima Karimova

Pedagogik innovasiyalar, kasb-hunar ta'limi boshqaruv hamda pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti dotsenti pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori

KASB STANDARTI NIMA?

Annotatsiya. Maqolada kasb standarti mazmun mohiyati, kelib chiqishi, kasb standartlarini ish beruvchilar va ishchi xodimlarga qay darajada kerakliligi, kasbiy standartlar orqali ishga qabul qilishda xodimning malakasini aniqlashning afzalliklari yoritib berilgan.

Tayanch so'zlar: kasb standarti, malaka, kompetentsiya, ko'nikmani baholash, maxsus, kompetentlik, mezon, metod.

O'tgan asrning 80-yillari oxirlarida Amerika va Yevropada professional va oliy ta'liming krizisi ko'zga tashlanib qoldi. Ta'lim iqtisodiyot, ishlab chiqarish, biznesning ehtiyojlaridan orqada qolib ketdi, bitiruvchilar mehnat faoliyatiga bevosita kirishib keta olmay qoldilar. Shunday qilib, kun tartibiga ish beruvchilar tomonidan xodimlarga talablarni shakllantirish masalasi qo'yildi. Ishga kiruvchilar mazkur talablarni o'zlashtirganliklarini ko'rsatishlari kerak. Yuqorida aytilgan talablarni shakllantirish "kasb standart"larining tamal toshi bo'lib xizmat qildi.

Kasb standarti — asosiy mehnat funktsiyalari va ularni bajarish sharoitlarini ifodalovchi, ko'nikma darajasiga, mehnat mazmuni, sifati va sharoitlariga talablarni belgilovchi standart [2].

Kasb standartlari sifatli ta'lim dasturlari va kasbga o'qitish dasturlarini shakllantirishga muhim hissa qo'sha oladi, shuningdek mutaxassis tayyorlash jarayoniga zamonaviy, samarali ta'lim texnologiyalarini qo'llashga yo'l ochadi.

Sertifikatsiya va turli toifadagi xodimlar attestatsiyasi tizimlari asosi bo'lib xizmat qila oladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» 2019yil 6-sentyabrdagi PF-5812-sон Farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 15 maydagi 287-sон “O'zbekiston Respublikasida kasbiy malakalar, bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish milliy tizimi faoliyatini tashkil etish choralar to'g'risida”gi Qarori qabul qilindi. Ushbu Qarorda keltirilgan “Kasbiy malakalar, bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish milliy tizimi to'g'risida”gi nizomda O'zbekistonda ilk marotaba “kasbiy standart”, “milliy malaka ramkasi” atamalariga ta'rif berildi:

malaka darajasi (malakaviy daraja) — xodim yoki ishga (kasbga) talabgorning tayyorgarligi va ko'nikmalari darajasi bo'yicha mehnat funktsiyalarining murakkabligi, ularni mustaqil bajarish va natijalarga mas'uliyati parametrlari bo'yicha belgilanadigan toifalangan talablar majmuasi;

ko'nikmalarni baholash — xodim yoki ishga (kasbga) talabgor malakasining kasb standarti qoidalariga yoki malakaviy talablarga mosligini tasdiqlash tartibi;

kasb standarti — asosiy mehnat funktsiyalari va ularni bajarish sharoitlarini ifodalovchi, ko'nikma darajasiga mehnat mazmuni, sifati va sharoitlariga talablarni belgiloychi standart [1].

Kasbiy standartlarni qo'llash ostida ta'lim muassasasi faoliyatini tashkil etish, shu jumladan quyidagilarni amalga oshirish tushuniladi:

- ishga qabul qilishda xodimning malakasini aniqlashda;
- egallab turgan lavozimiga muvofiqligini aniqlash bo'yicha attestatsiya o'tkazishda;
- xodimlarni ta'lim turini aniqlash uchun qo'shimcha kasbiy ta'lim olishga yo'naltirishda;
- mehnat harakatlari va bilim hamda ko'nikmalarga bo'lgan talablarni aniqlash uchun lavozim yo'riqnomalarini ishlab chiqishda;
- lavozim nomlarini aniqlash uchun shtat jadvalini ishlab chiqishda.

Kasbiy standartlar quyidagilar uchun kerak:

Birinchidan, xodimning malakasini va tegishli lavozim mosligini aniqlashda. Bunda kasbiy standart – malakaviy ma'lumotnomaga qaraganda batafsilroq hujjat hisoblanadi.

Ikkinchidan:

- kasbiy ta'lim olish
- kasbiy ta'lim berish
- qo'shimcha kasbiy ta'lim olish, o'quv dasturlarini ishlab chiqishda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 15 maydag‘i 287-sod “O‘zbekiston Respublikasida kasbiy malakalar, bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirish milliy tizimi faoliyatini tashkil etish choralari to‘g‘risida”gi Qarori. Lex.uz
2. Australian Professional Standards for Teachers. // Australian Institute for Teaching and School Leadership. 2015. URL:<http://www.aitsl.edu.au/australian-professional-standards-for-teachers/standards/list>
3. National Professional Standards for Teachers in Pakistan. Policy and Planning Wing. Ministry of Education. Government of Pakistan. Islamabad. February 2009. 18pp.